FARG‘ONA VILOYATI O‘ZBEKISTON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 6-noyabr 431-11-161-Q/24 O‘zbekiston tuman hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 20.10.2020 yildagi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonuni (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2020 y. 03/20/642/1396-son; 02.04.2021 y 03/21/681/0264-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021 y, 03/21/683/0375-son)ning 12-moddasiga va O‘zbekiston Respublikasining 15.10.2020 yildagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida"gi Qonun (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.10.2020 y. 03/20/641/1389-son;Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021y., 03/21/683/0375-son)lariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 05.12.2017 yildagi “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 965-sonli qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 11.12.2017y. 09/17/965/0393-son; 29.09.2020 y. 09/20/593/1340-son, 31.12.2020y. 09/20/830/1696-son)ga asosan tumanda ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan shaxslarni 2025 yilda ishga joylashtirish uchun ish joylarini eng kam miqdorini belgilash, qo‘shimcha ish joylari yaratish hamda ularni muhofaza qilish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni (keyingi o‘rinlarda muxtojlar deb ataladi) ishga joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash va zahiraga qo‘yish bo‘yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq, “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda Nizom deb ataladi) muvofiq muxtojlar uchun ajratilishi va zahiraga qo‘yilishi ko‘zda tutilgan korxonalar va tashkilotlar ro‘yxati 2-ilovaga asosan tasdiqlansin;

2.Qarorning 2-ilovasiga muvofiq tumanda mavjud korxona va tashkilotlar xodimlarning ro‘yxati bo‘yicha o‘rtacha sonining 2,4 foiz miqdorida, ya’ni 219 nafarni tashkil etadi, shu jumladan:

a) o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari, nogironligi bo‘lgan bolalari bor yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun (42) ta;

b) umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tashkilotlarini, kasb-hunar maktablarini, kasb-hunar kollejlarini hamda texnikumlarni tamomlab, kasbga ega bo‘lgan yoshlar, «Mehribonlik» uylarining bitiruvchilari, shuningdek oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (139)ta;

v) O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining, Ichki ishlar vazirligining, Favqulodda vaziyatlar vazirligining, Milliy gvardiyasining, Davlat xavfsizlik xizmatining qo‘shinlaridagi muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun (13)ta;

g) nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun(13)ta;

d) pensiyaoldi yoshidagi shaxslar (5)ta;

e) Jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilgan shaxslar (8)ta:

Ushbu toifadagi shaxslar tomonidan qo‘yiladigan o‘ziga xos talablarga muvofiq bo‘lgan mehnat sharoitlarini ta’minlaydigan ish o‘rni mazkur toifadagi shaxslar uchun, shu jumladan quyidagilar uchun tashkil etilgan ish o‘rni deb hisoblanadi:

O‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolgiz onalar va o‘n to‘rt yoshga to‘lmagan bolalari nogironligi bo‘lgan yolg‘iz otaga yoki onaga, shuningdek ko‘p bolali oilalarning ota-onalari uchun — bolalarni tarbiyalash majburiyatlari va mehnat majburiyatlari bajarilishini birga qo‘shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari; nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan va xodimga sog‘lig‘ining holatini hamda mehnat faoliyatiga doir belgilangan qarshi ko‘rsatmalar hisobga olingan holda mehnat majburiyatlarini moneliksiz bajarish imkonini beradigan ish o‘rinlari.

3.Nizomning 20-bandiga muvofiq tashkilot va korxonalar yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limini xabardor qilishi shartligi, Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zahiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limiga birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinishi, Tashkilot va korxonalar har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limiga ushbu Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etib borishi lozim.Tashkilot va korxonalar tomonidan muhtojlarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlari tayyorligi

to‘g‘risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zahiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qarashi lozimligi qayd etilsin;

4.Mazkur qaror bajarilmagan taqdirda shuningdek, ularni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilotning mansabdor shaxslariga yuqoridagi Nizomning 21-bandiga muvofiq qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy javobgarlik belgilanishi ko‘rsatib o‘tilsin;

5.O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 10.05.2019 yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Aholi bandligiga ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to‘g‘risida Nizomni tasdiqlash haqida”gi 19-2019-B sonli buyrug‘iga (Av ro‘yxat raqami 3163,31.03.2019yil) muvofiq, ijtimoiy ehtiyojmand Aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam ish o‘rindan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga-rejadan ortiq qabul qilingan har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish xaqining 2 barobari miqdorida subsidiya to‘lab berilishi inobatga olinsin;

6.Mazkur qaror bajarilishi ustidan nazorat qilish tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi hamda Nizomning 24-bandiga muvofiq tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandligiga ko‘maklashish bo‘limi (Э.Bozarov) tuman ishchi komissiyalariga: tashkilotlar tomonidan ish o‘rinlari zahiraga qo‘yilganligi;

ushbu ish o‘rinlariga ushbu Nizomning 3-bandida ko‘rsatilgan shaxslar toifasi ishga joylashtirilganligi;ish o‘rinlarini zahiraga qo‘yish bo‘yicha tuman hokimining qarorini bajarmagankorxonalar va tashkilotlarning mansabdor shaxslariga jarima solinganligi to‘g‘risida umumlashtirilgan axborotni yuboradi.

7.“Yaypan ovozi” gazetasi tahririyati (I.Mahkamov) ro‘znomaning keyingi sonida mazkur qaror rasmiy e’lon qilinishini, O‘zbekiston tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (D.Jabborov) hokimlik veb-saytiga 3 kunlik muddatda joylashtirilishi ta’minlansin;

8.Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi;

9.O‘zbekiston tuman hokimining 2023 yil 26-oktyabrdagi 323-11-161-Q/23-sonli qarori 2025 yil 1 yanvardan o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabr kunidagi 965- sonli qarorining 2-bandiga asosan kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2017 yil 8 avgustdagi PQ-3182-son qaroriga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha omaydigan shaxslar uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini yaratish bo‘yicha tuman hokimi qarorining bajarilmaganligi uchun shaxsan javob berishi qayd etilsin.

Tuman hokimi **Sh.Yuldashev**